

2-TOM, 6-SON

**QURILISH TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI AHAMIYATI  
VA MOHIYATI**

*Muallif:* Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti  
Buxgalteriya va audit yo'nalishi 4-bosqich talabasi

**Sharipova Nilufar Mansurovna**

**ANNOTATSIYA**

Qurilish tarmog'i xalq xo'jaligining boshqa tarmoq va sohalaridan turli jihatlari bo'yicha farq qiladi. Ushbu farqli jihatlar ularni boshqarish uchun kerakli bo'lgan axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash va uzatish vositasi bo'lgan buxgalteriya hisobiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy hol. Aynan shular qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlarini «Buxgalteriya hisobi» fanining tarkibida maxsus bo'lim sifatida chuqur o'rganishni taqozo etadi. E'tiborlaringizga havola etilayotgan ushbu nazoratishida qurilish tarmog'iga tegishli qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi, qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar holati va harakati hisobi, ushbu xususiyatlarning buxgalteriya hisobini tashkil qilishga ta'siri ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qurilish tashkilotlari, elektron bozor, asosiy vositalar, internet-banking, elektron tijorat.

**KIRISH**

Qurilish ishlarini turli mehnat qurollari hamda vositalarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Chunonchi, yer osti va yer uski, turli chuqurlik va balandliklardagi ishlarni bajarish uchun qurilish tashkilotlariga harakatlanuvchi kranlar, buldozerlar, ekskavatorlar, beton qorish mashinalari, bo'yoq va ohak purkagich apparatlar, elektr randa va arralar hamda boshqashu kabi texnikalar, mashina va uskunalar kerak bo'ladi. Bundan tashqari, qurilishga kerakli bo'lgan ko'p miqdordagi materiallarni tayyorlash, saqlash va ularni qurilish maydonchalariga o'z vaqtida yetkazib berish turli ta'minot, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarning bajarilishini ta'minlovchi binolar, inshootlar, transport va boshqa mehnat vositalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Bularning barchasi qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarni muhim ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Bu, o'z navbatida, qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar holati va harakati eskirishi va yangilanishi, samarali ishlatilishi ustidan uzliksiz nazoratni o'rnatish, shuningdek ular hisobini o'z vaqtida va to'g'ri yuritish talabini qo'yadi. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatda ishbilarmonlik



## 2-TOM, 6-SON

muhitini rivojlantirishga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati sohasida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda, ularning hal etilishi biznesni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek nazorat qiluvchi organlar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida ishonchli hamkorlikni o'rnatishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinganligi amaldagi tekshiruvlar tizimini, davlat nazoratining boshqa turlarini, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Qonun hujjatlarida zamon talablariga javob bermaydigan ayrim huquqiy mexanizmlarning mavjudligi sababli soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penyalar va moliyaviy jarimalar bo'yicha qarzdorliklar sun'iy yo'l bilan yig'ilib bormoqda. Tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelayotgan davlat organlarining samarasiz va ortiqcha nazorat funksiyalari amal qilmoqda. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarning tashkiliy jihatlari va tartib-taomillarini kompleks tartibga solish hamda ularning qonuniyligi monitoringini olib borishning yagona yaxlit tizimi mavjud emasligi nazorat qiluvchi organlar faoliyatining shaffofligini ta'minlash va o'tkaziladigan tekshiruvlarning asosililigini xolis baholash imkonini bermayapti. O'tkaziladigan tekshiruvlarning ochiqligi, oshkoraligi va xolisligini ta'minlovchi nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan mustaqil jamoatchilik nazorati tizimi joriy etilmagan. Ko'chmas mulk obyektlarini buzib, davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplashning amaldagi mexanizmidagi kamchiliklar ularning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelmoqda, tadbirkorlik subyektlarining davlatga bo'lgan ishonchiga putur yetkazmoqda, shuningdek, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini pasaytirmoqda. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining xolisona ifodalangan intellektual faoliyat natijalariga hamda uning o'ziga xos vositalariga (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va hokazolarga) bo'lgan mutlaq huquqi qonun bilan muhofaza etiladi va davlat tomonidan himoya qilinadi. Mutloq huquqlar obyektlari bo'lgan intellektual faoliyat natijalari va o'ziga xos vositalardan uchinchi shaxslar faqat huquq egasining roziligi bilan foydalanishlari mumkin. **Qurilish**— moddiy ishlab chiqarishning yirik sohaslaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va



## **2-TOM, 6-SON**

boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi. Qurilishda ishlab chiqarish sikli nisbatan uzun bo'lib (bir necha oydan bir necha yilgacha), ishlab chiqarish jarayoni turli obhavo sharoitida ochiq usulda olib boriladi. Pudrat va xo'jalik usulidagi Qurilishni va montaj ishlarini, shuningdek, bino, insho-otlarni kapital ta'mirlash ishlarini qurilish tashkilotlari va maxsus tashkilotlar; loyihalash, loyiha-konstruktorlik va qidiruv tashkilotlari; foydalanishga topshirish va raz-vedkaparmalash tashkilotlari amalga oshiradi. Tiklanadigan obyekt xususiyatlariga ko'ra sanoat, transport, qishloq, suv xo'jaligi, uy-joy, kom-munal, ijtimoiy-madaniy va boshqa qurilishlarga bo'linadi.

Qurilish xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga xizmat ko'rsatib, asosiy fondlarni qayta takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta'minlaydi, xalq xo'jaligining maqbul tarkibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, respublikaning yangi tabiiy boyliklarini o'zlashtirish, bo'sh mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarish ga jalb etishga yordam beradi. Respublikada Qurilish ishlari pudrat, sub-pudrat va qisman xo'jalik usullarida olib boriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2164-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mobil aloqa milliy operatori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 12.02.2014-yil, 2126- son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori 14.11.2013-yil, 2066-son qarori.

4. "Tijorat siri" to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 37-sonli, 463-modda; Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 18-iyunda qabul qilingan, Senat tomonidan 2014-yil 28-avgustda ma'qullangan.

5. "Axborotlashtirish" to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004yil, 1-2son, 10-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil.

